

## **GEOGRAFIYA FANI O‘QUV JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING FANGA QIZIQISHINI RAQAMLI XARITALAR ORQALI OSHIRISH**

**Tajiyev Quдрat**

G.f.f.d (PhD), dotsent, UrDPI

**Allaberganova Noila**

UrDU 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Geografiyani xaritasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu bog‘liqlikni mustahkamlash, o‘quvchilarni zamonaviy sohalar (GAT) bilan tanishtirib, fanga qiziqishini oshirib borish ta‘lim sifatini yaxshilaydi. Ushbu maqolada mental va raqamli xaritalardan Geografiya darslarida foydalanish bo‘yicha ayrim namunalar keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** Geografiya, o‘quv jarayoni, mental xaritalar, raqamli xaritalar, GAT (geografik axborot tizimlari), GPS navigator, masshtab, integratsiya.

## **ПОВЫШЕНИЕ ИНТЕРЕСА СТУДЕНТОВ К НАУКЕ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВЫЕ КАРТЫ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЯ ГЕОГРАФИИ**

**Таджиев Кудрат**

Г.ф.ф.д. (PhD), доцент УрГПИ

**Аллаберганова Ноила**

Магистрант 1 ступени УрГУ

**Аннотация:** Географию невозможно представить без карты. Укрепление этой связи, знакомство студентов с современными областями (ГИС) и повышение их интереса к науке повысят качество образования. В данной статье представлены некоторые примеры использования мысленных и цифровых карт на уроках географии.

**Ключевые слова:** География, учебный процесс, ментальные карты, цифровые карты, ГИС (географические информационные системы), GPS-навигатор, масштаб, интеграция.

# INCREASING STUDENTS' INTEREST IN SCIENCE THROUGH DIGITAL MAPS IN GEOGRAPHY LEARNING PROCESS

**Tajiyev Kudrat**

G.f.f.d (PhD), associate professor of UrSPI

**Allaberganova Noila**

1st stage master's student of UrSU

**Abstract:** Geography cannot be imagined without a map. Strengthening this relationship, introducing students to modern fields (GIS) and increasing their interest in science will improve the quality of education. This article presents some examples of the use of mental and digital maps in Geography lessons.

**Key words:** Geography, educational process, mental maps, digital maps, GIS (geographic information systems), GPS navigator, scale, integration.


O'quv jarayonida ham boshqa faoliyatlar singari makon va zamonda o'zgarish xususiyati mavjud. So'nggi yillarga kelib mamlakatimizdagi ta'lim-tarbiya tizimining sifat va samaradorligini oshirish, o'quvchi-yoshlarda zamonaviy bilim hamda ko'nikmalarni shakllantirish, ta'lim tizimiga zamon yutuqlarini keng joriy qilish, turli sohalar o'rtasida yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yish choralari asta-sekin ko'rilmoqda. Ya'ni mamlakatimizning, aytaylik, viloyatimizning turli hududlaridagi o'quv jarayonlari yoki bundan 20-30 yil oldingi ta'lim tizimi bilan bugungi o'quv faoliyatlari bir-biridan sezilarli darajada farqlanadi. Bunga o'sha hudud yoki davrning ijtimoiy-iqtisodiy muhiti – o'quvchi va o'qituvchilarning o'zaro munosabatlari, dunyoqarashi, fanning o'quv resurslari bilan, o'quv xonalarining ta'lim vositalari bilan ta'minlanganlik darajalari va boshqa omillar ta'sir ko'rsatadi. Rivojlanayotgan zamonda boshqa sohalar singari Geografiya ta'limini ham samarali tashkil etish davr talabi bo'lib, tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy qonuniyatlarning umumiy tavsifini bilish, hududiy jihatdan tahlil qila olish har bir mustaqil fikrli shaxs uchun muhim jihatlardan biridir. Buning uchun soha mutaxassislari ilm-fan yutuqlari va mavjud imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanishga harakat qilishi, fanning yashirin qirralarini ochib bera olishi zarur.

Informatika deganda, xayolga birinchi navbatda kompyuter va axborot kelsa, Geografiya deganda globus va xaritalar keladi. N.N.Baranskiy ta'бири bilan aytganda esa xarita – geografiyaning “ikkinchi tili” bo'lishi bilan birga, geografik tadqiqotlarning boshlanishi va oxiri hamdir. Shuning uchun ham har bir dars mashg'ulotida ular bilan bog'lanish bor, darslarni “hamkorlikda” olib borish talab qilinadi. Garchi, kompyuter texnologiyalari rivojlanib borayotgan, qog'oz xaritalardan ko'ra elektron xaritalar qulaylik tug'dirayotgan zamonga o'tib borayotgan bo'lsak-da, respublikamiz maktablari to'liq bir xilda jihozlangan emas va bu juda qiyin ish. Ta'lim muassasalarining aksariyatida ta'lim vositalarining an'anaviyligi, ya'ni texnik bazaning yetishmovchiligi o'quvchilarning ta'lim olishiga to'siq bo'lmasligi kerak. Zero, birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning O'zR Oliy Majlisining Birinchi chaqiriq 14-sessiyasidagi ma'ruzasida “Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish zarur” [1] deya, bergan ko'rsatmasini unutmazlik lozim.

Bugunga kelib zamonaviy geografiya ta'limiga an'anaviy ta'limda ham qo'llash mumkin bo'lgan yana bir yangi tushuncha – mental xaritalar tushunchasi kirib keldi va u tobora ommalashmoqda. Bunda Geografiyani o'rganishning asosiy “shart”laridan biri – nazariy bilimlarga tayanib, tasavvurni ishga solish talab qilinadi. Albatta, bu o'qituvchining pedagogik mahorati va o'quvchining dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liq jarayon. Chunki o'rganilayotgan hududning xaritasini o'quvchilar o'z tasavvurida shakllantira olishlari uchun avval shu hudud haqida nazariy bilimga ega bo'lishi kerak.

Umuman, mental xaritalar vositasida, o'quvchilar darslikdagi matnlarni o'qiganida, fanga doir turli ilustrativ materiallarni tomosha qilganlarida yoki biron-bir materikning hududini internet saytlarida izlayotgan paytida ushbu hududning “obraz”ini xayolan o'zida shakllantirishi zarur [4]. Boshqa tomondan axborot-texnologiyalarining ommalashayotgan davridamiz. Bu esa mavjud imkoniyatdan unumli foydalanish, o'quvchi-yoshlarga fan-texnika yutuqlarini ko'rsata bilish kerakligini taqozo etadi. Bu borada biz sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari va ularning afzallik, imkoniyatlaridan ham Geografiya darslari o'quv jarayoni davomida foydalana olishimiz, mavzudan uzoqlashmagan holda ma'lumot berib o'tishimiz, o'quvchilarni GAT (geografik axborot


tizimlari; GIS)dagi faoliyatlar, yutuqlar va yana bir yangi tushuncha “raqamli xaritalar” bilan tanishtirishimiz mumkin. Bu o‘quvchida zamonaviy sohalar haqida tasavvur uyg‘otish bilan birga, ma’lumotlarni yaxshi o‘zlashtirib olish imkoniyatini beradi. Masalan, har qanday o‘quvchi uchun aytaylik, xarita haqidagi ma’lumotlarni shunchaki eshitib o‘tirishdan ko‘ra, eshitish bilan birga, kompyuterda mavjud ma’lumotlarni qo‘shib, bir xarita yarata olishi u uchun maroqli va samaraliroq natija beradi. To‘g‘ri, bu jarayonning maktab o‘quv jarayonida qo‘llanila boshlanishi ko‘p vaqt va mablag‘ talab qiladi. Ammo, bu kabi nazariy bilimlarning amaliy faoliyat bilan integratsiyasi yuqori natijalarga olib keladi.



1-rasm. “Geografik xaritalar” mavzusini tushuntirishda GAT ma’lumotlari orqali o‘z yashash hududi tasvirini ko‘rsatish (Killavut mahallasi misolida)

Shu o‘rinda amerikalik psixolog olimlardan R.Karnikau va F.Makelroularning o‘rganishlarini aytish mumkin. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari unga muayyan shakllarda o‘zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini berar ekan. Ya’ni shaxs agar manbani o‘zi o‘qisa, 10 %; ma’lumotni eshitganida – 20 %; sodir bo‘lgan voqea, hodisa yoki jarayonni

ko‘rganida – 30 %; sodir bo‘lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko‘rib, ular to‘g‘risida ma‘lumotlarni eshitganida – 50 %; ma‘lumot (axborot)larni o‘zi uzatganida (so‘zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) – 80 %; o‘zlashtirilgan bilim (ma‘lumot, axborot)larni o‘z faoliyatiga tatbiq etganida – 90 % hajmdagi ma‘lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega bo‘lar ekan [3]. Shuning uchun ham darslarning ko‘rgazmaliligini oshirish, turli maket, modellardan, o‘quvchi diqqatini jalb qiluvchi geografik ma‘lumotlardan o‘rinli foydalana bilish lozim. Misol uchun 7-sinf Geografiya darsligidagi “Geografik xaritalar” mavzusini tushuntirishda raqamli xarita ma‘lumotlari asqotadi. Namuna sifatida aytadigan bo‘lsak, ta‘lim muassasasi joylashgan mahallani mobil ilovalardagi raqamli xaritalar (GPS navigator) ma‘lumotlari orqali bo‘rttirib ko‘rsatilishi o‘quvchi uchun qiziqarli (1-rasm). Yoki shu darslikdagi “Masshtab” mavzusini yanada soddaroq tushuntirishda ham bu usul qo‘l keladi (2-rasm).



2-rasm. “Masshtab” mavzusi uchun GATdan foydalanish bo‘yicha namuna

7-sinf o‘quvchisi “Masshtab” mavzusidagi masshtabning o‘zgarishi va ahamiyatini GAT ma‘lumotlari asosida tuzilgan ilustrativ material yordamida yanada yaxshiroq tushunish bilan birga, ko‘rsatilgan hudud (o‘z yashash yoki o‘qish joyi)ning

geografik joylashuvi, katta-kichikligi, shakli haqidagi dastlabki ma'lumot va tasavvurlarga ham ega bo'ladi. Bu esa o'quvchida mental xaritalarning ahamiyatini oshiradi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yuqoridagi 1-2-rasm ma'lumotlari Xorazm viloyati Urganch tumanida joylashgan Killavut mahallasi misolida bo'lib, pedagog ularni dars o'tadigan sinfi, mavzusi va mavzudan ko'zlangan maqsadiga ko'ra o'zgartirishi, shunga o'xshash o'quvchilar uchun noodatiy xaritalardan foydalanishi mumkin. Bu kabi sodda raqamli xaritalarni geografiya yo'nalishi mutaxassislari o'zlari mustaqil tayyorlash ko'nikmasini shakllantirsa bo'ladi yoki GAT mutaxassislari bilan hamkorlikda ishlash orqali yarata oladilar. Bu turdosh sohalararo integratsiya yoshlar o'rtasida dunyoqarashni kengaytirish va fanga qiziqishni kuchaytirish bilan birga, Geografiya fani mavqeining oshishida ham xizmat qiladi. Bu esa, samarali ta'lim degani. Zero, o'rganilayotgan bilimga hurmat va qiziqish bor joyda, oson va samarali o'rganish shakllana oladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда. – Т.: Ўзбекистон, 1999.
2. Mirakmalov M. T., Sharipov Sh. M., Avezov M. M., Hojiyeva M. T. Geografiya: 7-sinf uchun darslik. -Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. -176 b.
3. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Metodik qo'llanma.-T., 2013. -116 b.
4. Xodjaeva G.A., Jiemuratova G.O'. "Geografiya darslarida o'quvchilarning kreativ fikrlashini shakllantirish". Янгиланаётган Ўзбекистонда география: фан, таълим ва инновация республика миқёсидаги илмий-амалий конференция материаллари. Тошкент, 15-декабрь, 2021. 352-354 б.